

**EKSPERIMENTAL GIDRONEFROZDA BUYRAK YUKSTAGLOMERULAR
KOMPLEKSINING MORFOFUNKSIONAL HOLATI****Tursunbayev J.A.****Ilmiy rahbar: t.f.d., professor Rasulov H.A.****Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20824541>****Dolzarbligi**

Gidronefroz siydik chiqarish yo'llarining obstruksiya natijasida rivojlanadigan va buyrak jom-kosacha tizimining kengayishi bilan kechadigan patologik holat hisoblanadi. Kasallik rivojlanishi davomida buyrak parenximasida ishemik, distrofik va sklerotik o'zgarishlar yuzaga keladi. Buyrakning yukstaglomerulyar apparati (YuGA) renin–angiotenzin–aldosteron tizimini boshqaruvchi asosiy regulyator tuzilma bo'lib, arterial bosim, glomerulyar filtratsiya va suv-elektrolit muvozanatini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq gidronefroz sharoitida YuGA yuz beradigan morfofunktsional o'zgarishlar yetarlicha o'rganilmagan.

Tadqiqot maqsadi

Eksperimental gidronefroz sharoitida buyraklar yukstaglomerulyar apparatida rivojlanadigan morfofunktsional o'zgarishlarni aniqlash va baholash.

Material va usullar

Tadqiqot 250–300 g vaznga ega bo'lgan 56 ta Wistar zotli kalamushlarda o'tkazildi. Eksperimental gidronefroz bir tomonlama ureter obstruksiya modelashtirish orqali yaratildi. Hayvonlar nazorat hamda tajriba guruhlariga bo'linib, 7, 14 va 30 sutkalarda kuzatuv olib borildi. Buyrak to'qimalari standart gistologik usullar yordamida o'rganildi. Preparatlar gematoksilin-eozin bilan bo'yali, glomerulalar, kanalchalar, qon tomirlari va yukstaglomerulyar apparat elementlarining morfologik holati baholandi.

Natijalar

Tadqiqot natijalariga ko'ra, gidronefrozning 7-sutkasida kompensator-moslashuv reaksiyalari ustunlik qildi. Bunda glomerulalar gipertrofiyasi, kanalchalar dilatatsiyasi va interstitsial shish kuzatildi. Yukstaglomerulyar hujayralarda giperplaziya va gipertrofiya belgilari aniqlandi.

14-sutkada patologik jarayon chuqurlashib, kanalcha epiteliysida atrofik o'zgarishlar, interstitsial yallig'lanish infiltratsiyasi hamda fibroz rivojlandi. YuGA hujayralarining sekretor faolligi ortib, afferent arteriolalarda devor qalinlashishi va tomir bo'shlig'ining torayishi kuzatildi.

30-sutkada esa qaytmas morfologik o'zgarishlar rivojlandi. Buyrak parenximasining atrofiyasi, glomeruloskleroz, massiv interstitsial fibroz va tomirlar sklerozi aniqlandi. Yukstaglomerulyar apparatda degenerativ o'zgarishlar kuchayib, uning funksional faolligi pasaydi.

Xulosa

Eksperimental gidronefrozda yukstaglomerulyar apparatda bosqichma-bosqich morfofunktsional qayta tuzilishlar rivojlanadi. Kasallikning dastlabki bosqichlarida kompensator giperplaziya va gipertrofiya kuzatilsa, uzoq muddatli obstruksiya natijasida degenerativ va sklerotik o'zgarishlar shakllanadi. YuGAdagi ushbu o'zgarishlar gidronefroz

patogenezida muhim o'rin tutib, surunkali buyrak yetishmovchiligi rivojlanishining morfologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar

gidronefroz, buyrak, yukstaglomerulyar apparat, renin, morfologiya, obstruktiv nefropatiya, nefroskleroz.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Rasulov H.A., Tursunbayev J.A. Buyrak kasalliklarining eksperimental morfologiyasi. – Toshkent: Tibbiyot, 2022. – 184 b.
2. Ahmedov A.A., Ismoilov Sh.Sh. Nefrologiya asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 256 b.
3. Chevalier R.L. Pathogenesis of renal injury in obstructive uropathy // Current Opinion in Pediatrics. – 2021. – Vol. 33, №2. – P. 212–218.
4. Klahr S., Morrissey J. Obstructive nephropathy and renal fibrosis // American Journal of Physiology-Renal Physiology. – 2020. – Vol. 318. – P. F1123–F1132.
5. Kim Y.S., Han K.H. Renin-angiotensin system activation in obstructive nephropathy // Kidney Research and Clinical Practice. – 2022. – Vol. 41, №3. – P. 289–297.
6. Boor P., Ostendorf T., Floege J. Renal fibrosis: novel insights into mechanisms and therapeutic targets // Nature Reviews Nephrology. – 2022. – Vol. 18. – P. 389–406.
7. Meng X.M., Nikolic-Paterson D.J., Lan H.Y. TGF- β signaling in renal fibrosis // Nature Reviews Nephrology. – 2021. – Vol. 17. – P. 533–551.
8. Brenner B.M., Rector F.C. Brenner and Rector's The Kidney. – 11th ed. – Philadelphia: Elsevier, 2020. – 2300 p.
9. Nangaku M. Chronic hypoxia and tubulointerstitial injury in kidney disease // Journal of the American Society of Nephrology. – 2021. – Vol. 32. – P. 1617–1629.
10. Webster A.C., Nagler E.V., Morton R.L., Masson P. Chronic kidney disease // The Lancet. – 2022. – Vol. 399. – P. 786–802.